

“O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va
savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik
jihatdan tartibga solish agentligining

“3” iyul 2023 yildagi

108к - son buyrug‘iga

4-ILOVA

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining
Axborot tahlil bo‘limi to‘g‘risida
N I Z O M**

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb ataladi) Axborot tahlil bo‘limi (keyingi o‘rinlarda — Bo‘lim deb yuritiladi) qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlarini va javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim o‘zining faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g‘risidagi nizom, agentlik Hay‘atining qarorlari, agentlik bosh direktorining buyruqlari va farmoyishlari, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Bo‘lim faoliyati bo‘yicha o‘zining huquq doirasida umumiyo boshqaruvi, muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshiradi, yuqorida ko‘rsatilgan sohalarda ish olib borish umumiyo qoidalarini belgilaydi.

2-bob. Axborot tahlil bo‘lim faoliyatini tashkil etish

4. Axborot tahlil bo‘limi bevosita Agentlik bosh direktoriga bo‘ysunadi.

5. Axborot tahlil bo‘limga Agentlik bosh direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

6. Axborot tahlil bo‘lim boshlig‘i:

Axborot tahlil bo‘limga umumiyo rahbarlikni amalga oshiradi, bo‘lim ishlarini tashkil etadi va nazorat qiladi;

bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, taqdim etiladigan tahliliy materiallar va hujjatlarning to‘liqligi uchun shaxsan javob beradi;

xodimlar o‘rtasida funksional vazifalarni taqsimlaydi;

7. Axborot tahlil bo‘lim faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi va Agentlik rahbariyatiga kiritadi.

8. Bo‘lim o‘z ishini agentlik markaziy apparati boshqarmalari, bo‘limlari va tizim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni umumiylashtirish va taxlit qilish asosida tashkil etadi.

3-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Oliy Majlisning qaror va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyish va topshiriqlari shuningdek, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish, hisobotlar yuritish va doimiy monitoringni amalga oshirish;

Agentlik boshqarmalari, bo‘limlari va tizim tashkilotlarining soha bo‘yicha faoliyatlarini tahlil qilish, tahlil natijalarida sohani rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish;

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, metrologiya va texnik jixatdan tartibga solish soxalarida belgilangan vazifalarni va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish hamda xalqaro tajribani o‘rgangan xolda soxani rivojlantirish, qonunchilikni o‘zgartirish bo‘yicha tegishli boshqarmalar bilan birgalikda takliflarni ishlab chiqishda qatnashish;

Soxa bo‘yicha axborot-tahliliy ma’lumotlarni, xisobotlarni, rahbar ma’ruzalarini, Hay’at qarorlarini, rivojlantirish rejalarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini tayyorlash;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Hay’at majlisi bayonlari va qarorlari ijrosi yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish;

Sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan normativ huquqiy hujjatlarni ishlab chiqilishida ishtirok etish;

Davlat va boshqaruva organlarining murojaatlari asosida agentlikning boshqarma, bo‘limlar va tizim tashkilotlarining ma’lumoti asosida yig‘ma axborot ma’lumotlarini shakllantirish;

Boshqarma, bo‘limlar va tizim tashkilotlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy mezonlari bo‘yicha tayyorlangan xisobotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va yig‘ma xisobotini raxbaryatga kiritish;

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, metrologiya va texnik jixatdan tartibga solish jarayonlariga tegishli hujjatlardan, statistika, xulosalar va boshqa ma’lumotlardan foydalangan xolda axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash;

Agentlikning reja va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun rahbaryatga kiritish;

Agentlik rahbaryatining topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida va boshqa davlat organlarida o‘z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan agentlikning vakili sifatida qatnashish;

Bo‘lim faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini qo‘llash bo‘yicha xulosalar tayyorlab, agentlik rahbaryatiga kiritish;

Aholini va xalqaro jamoatchilikni O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati to‘g‘risida tanishtirish uchun har xil maqolalar, ommaviy axborot

vositalari, xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ishlash orqali axborot-tahlil makonini yaratish, agentlikning rasmiy saytida berilayotgan ma'lumotlarning koordinatsiyasini olib borish.

10. Bo'lim o'z vakolatlari doirasida boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatları

11. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim uchun belgilangan vazifalar doirasida, agentlik markaziy apparati boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlaridan zarur hujjatlarni, statistika va boshqa ma'lumotlarni, tahliliy materiallarni, xulosalar va boshqa axborotlarni so'rash, berishni talab qilish va qarshiliklarsiz olish;

Agentlik rahbariyati va boshqa davlat organlari ko'rib chiqishi uchun qonun hujjatlarini va faoliyatni takomillashtirish masalalari bo'yicha belgilangan tartibda takliflar kiritish;

Agentlikning boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlarining ish natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, sohani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish masalalari bo'yicha raxbaryatga taklif kiritish;

Xalqaro konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar va yig'ilishlar ishida, shuningdek axborot-tahliliy tadqiqotlar xalqaro loyihamarida qatnashish;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha respublika vazirliklari, idoralari, boshqaruva hokimiyat mahalliy organlari, xorijiy davlatlar tadqiqot va statistika tashkilotlari bilan yozishmalar olib borish;

12. «Internet» va boshqarma axborot tarmoqlariga ulanish.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining barcha boshqarma, bo'lim, tizim tashkilotlari hamda ularning hududiy filiallaridan kerakli ma'lumotlarni qarshiliksiz olish;

O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Oliy Majlisning qaror va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyish va topshiriqlari shuningdek, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qarorlarining bajarilishi bo'yicha talab qilingan hujjat hamda ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'liq yoki umuman taqdim etmagan yoki kamchiliklarga yo'l qo'ygan O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining boshqarma, bo'lim, tizim tashkilotlari hamda hududiy filial rahbarlariga va xodimlariga nisbatan chora ko'rish bo'yicha takliflar kiritish;

13. Bo'limning har bir xodimi o'ziga biriktirilgan vazifa uchun mas'ul va lavozim yo'riqnomasi asosida faoliyat yuritadi.

14. Bo'lim xodimlari mahfiy hujjatlarni oshkora etmaydi.

15. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

16. Bo'lim agentlik rahbariyati ko'rib chiqishi uchun soha rivojlanishi tendensiylarini tavsiflovchi tahliliy materiallar taqdim etadi.

17. Bo‘lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Javobgarligi

18. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

19. Bo‘lim o‘zi viza qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

20. Bo‘lim xodimi o‘z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.